


## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022 yilning 1-oktabr holatiga 3 611 ta kichik biznes sub‘yektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2021 yilning shu davriga nisbatan 105,5 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi 2022 yilning 1 oktabr holatiga (jami nisbatan foizda) (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



Eng ko‘p kichik biznes sub‘yektlari savdo (jami tashkil etilgan sub‘yektlarning 31,5 foizi), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (26,0 foiz), sanoat sohasida (19,2 foiz) va (4,6 foiz) qurilishda, (5,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tashkil etilgan.

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 5 089,7mlrd. soʻmlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 68,1 %) oʻzlashtirildi va 2021 yilning yanvar-sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 99,1 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 2 406,6 mlrd. soʻmlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 95,0 %) va 2021 yilning yanvar-sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 105,8 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 4 051,8 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 51,3 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 3 415,2 mlrd. soʻmlik koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 58,4 %) 2021 yilning yanvar- sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 109,5 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 6 553,6 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 84,6 %) 2021 yilning yanvar- sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 110,2 foizni tashkil qildi;


– tovarlar eksport hajmi 67,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 45,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 311,1 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 86,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 23 108,9 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,3 %) 2021 yilning yanvar-sentabrga nisbatan oʻsish surʻati 100,4 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 66 213,4 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 94,2 %) 2021 yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 101,2 foizni tashkil qildi;

2022 yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 79,4 foizni, sanoatda – 51,3 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,0 foizni, qurilishda – 95,0 foizni, eksportda – 45,4 foizni tashkil qilgan.


**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi**






Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari  
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2022 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (899,9 mlrd. so'm), Forish (384,0 mlrd. so'm), G'allaorol (1 708,6 mlrd. so'm), tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2022 yil yanvar- sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (854,6 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (620,0 mlrd. so'm), G'allaorol (378,6 mlrd. so'm) va Zomin (344,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2022 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>51,3</b>	<b>95,0</b>	<b>58,4</b>	<b>99,0</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	32,8	94,9	35,4	95,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	58,4	100,0	75,4	99,6
Baxmal	100,0	100,0	69,2	99,4
G'allaorol	97,9	95,2	77,9	99,7
Sharof Rashidov	65,0	100,0	79,8	99,4
Do'stlik	8,4	100,0	71,1	99,6
Zomin	47,3	77,2	71,4	96,2
Zarbdor	21,3	94,7	73,2	99,9
Zafarobod	4,8	98,4	74,5	98,3
Mirzacho'l	100,0	89,5	62,9	99,1
Paxtakor	66,9	100,0	75,2	98,0
Forish	91,7	100,0	77,9	99,8
Yangiobod	100,0	100,0	74,5	99,8

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (4,8 %), Do'stlik (8,4 %), Zarbdor (21,3 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod tumanlarida esa (100 %) yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shaharda (94,9 %), Zomin (77,2 %), Mirzacho'l (89,5 %), Zarbdor (94,7 %) tumanlarida atan kam foizga tashkil etadi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (35,4 %), Mirzacho'l tumani (62,9 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.